

**FASHIZMGA QARSHI URUSH YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATINING  
RIVOJLANISHI:YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (FARG'ONA VODIYSI  
VILOYATLARI MISOLIDA)**

**Mahmudov Zoirbek Tohirjon o'g'li**

*Andijon Pedagogika instituti tarix yo'nalishi*

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonning sobiq SSSRning sanoat bazasiga aylanishi,sanoatda mehnat qilgan ishchilarning urushda nemis fashizimi hamda yapon militarizimi ustidan qozonilgan g'alabaga munisib qo'shgan hissasi Farg'ona vodiysi viloyatlari (Andijon,Namangan,Farg'ona) misolida faktik ma'lumotlar asosida ochib berilgan.*

**Kalit So'zlar:***Sanoatlashtirish , sanoat korxonalari,nemis fashizimi , Yapon militarizimi, Ikkinchi Jahon urushi, SSSR davlati,*

*Metallurgiya, MTS, Katta Farg'ona Kanali.*

Ikkinchi jahon urushi dunyo tarixida misli ko'rilmagan darajada katta va daxshatli,butun insoniyat boshiga og'ir kulfatlarni solgan urush bo'ldi.Ushbu urushda juda ko'p xalqlar moddiy va ma'naviy zarar ko'rdi.1941-1945 yillar mobaynida yuz bergan urush natijasida SSSR davlati nemis fashizimi hamda yapon militarizimi ustidan g'alaba qozondi.SSSR tarkibiga kirgan 15 ta davlat qatori O'zbekiston davlati xalqi ham ulug'vor g'alabaga munosib hissa qo'shdi. O'zbek xalqini urush yillarida ko'rsatgan mardlik va qahramonligi biz uchun g'urur va iftihar manbai bo'lib kelmoqda. Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan ajdodlarimiz xotirasiga chuqur hurmat bajo keltirib fashizimga qarshi janglarda, mehnat frontida jonbozlik ko'rsatgan faxriylarimizga alohida e'tibor va ehtirom ko'rsatish yurtimizda oliyjanob an'anaga aylanib qoldi.

Urush yillarida o'zbek xalqi o'zining sanoat mahsulotlari bilan ham faol qatnashdi. O'zbekistonning iqtisodiy va mehnat resurslari frontga safarbar etildi. Bu davrda O'zbekistonda yangi mehnat rejimi joriy etildi, ya'ni ish kuni uzaytirildi,dam olish kunlari va mehnat ta'tillari bekor qilindi.1941-yil oxirigacha 300 ga yaqin korxonani jangovar texnika,qurollar,o'q-dori ishlab chiqarishga moslashtirib qayta qurdilar.Bu korxonalarda frontga safarbar etilgan erkaklar o'rnini keksalar,xotin-qizlar egalladi.

Chorizim davrida Farg'ona vodiysi sanoati korxonalari ham ma'lum darajada rivojlandi.farg'ona vodiysida ishlab turgan "Andijon" ,

“Polvontosh”, “Changartosh”, “Chimyon” neft konlarida mahsulot ishlab chiqarish kuchaytirildi. Bundan tashqari ko'mir sanoati, rangli metallurgiya ishlab chiqarish, paxtani qayta ishlash, yog-moy sanoati, vinochilik, pivo ishlab chiqarish kabi sanoatlar ham taraqqiy etgan.

Farg'ona vodiysida sanoat asosan bir tomonlama rivojlangan. Bu yerda asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yo'lga qo'yilgan. Umuman olganda, sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi, temir yo'llar va banklarning paydo bo'lishi mintaqaning iqtisodiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Farg'ona vodiysiga metropoliyadan tayyor sanoat mahsulotlarini olib kelinishi hunarmandchilikning ayrim tarmoqlariga (ayniqsa, to'qimachilik sohasiga) jiddiy zarba berganligini e'tirof etib, bu sohada o'zining ahamiyatini butkul yo'qotmaganligi, aksincha, yangi sharoitda hunarmandchilikning ko'p tarmoqlari (ko'nchilik, kulolchilik, ipakchilik, zargarlik, misgarlik, temirchilik, gilamdo'zlik, poya bzal tayyorlash, do'ppido'zlik, pichoqchilik) tobora rivojlanib borgan. Bu hol haqli ravishda farg'onada sanoat ishlab chiqarish darajasi va aholi harid quvvatining pastligi bilan ifodalanadi. Ko'p hollarda aksariyat qismi kambag'al bo'lgan Farg'ona aholisi nisbatan sifatli lekin ancha qimmat rus sanoat mahsulotlaridan ko'ra mahalliy hunarmandlarning mahsulotlarini sotib olishni afzal ko'rar edi. Bu davrda Farg'onalik hunarmandlarning qo'li bilan yaratgan mahsulotlar qator umumrossiya va chet ellardagi ko'rgazmalarda so'vrinli o'rinlarni egallagan.

O'zbekiston SSRda uch yil mobaynida yirik sanoat korxonalarining soni 48 taga ko'paydi va 1928 yilga kelib 166 taga yetdi. Shu yillar mobaynida Farg'onada to'qimachilik fabrikasi, Toshkentda “O'rtoq” qandolatchilik fabrikasi bilan mexanik ko'nchilik zavodi, Samarqand, Buxoro, Marg'ilondapillakashlik fabrikasi, Bo'zsuv GESi, Xalqaro sement zavodi, “CHimyon” va “Santo” neftni haydash zavodlari ishga tushirildi. O'zbekistonda 1925-yilda atigi 21 ta sanoat tarmog'iga talluqli 149 ta korxonalar mavjud edi, xolos. Ular ham asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga moslashgan. Uncha kata bo'lmagan korxonalar edi.

Sanoatlashtirish davrida respublikada 17 ta paxta tozalash zavodlari barpo etildi. Shuningdek, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Marg'ilon, Shahrizabzda pillakashlik fabrikalari, Farg'ona (1930) va Toshkent (1936-1939) to'qimachilik, Chirchiq elektrokimyosi (1937) kombinantlari, Toshkent mashinasozlik zavodi, bir necha konserva, g'isht pishirish va urug' yetishtirish korxonalarini qurildi.

O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarini ommaviy tarzda jamoalashtirish ishlari ayni chog'da yangi xo'jaliklarga moddiy-texnik baza bo'lib xizmat qiladigan mashina-traktor stansiyalari(MTS) ni tashkil etish bilan uzviy bog'liq holda olib borildi.O'zbekistonda dastlabki mashina- traktor stansiyasi 1929-yilda Andijon okrugining Asaka tumanida tuzilgan , u yangidan tashkil etilgan jamoa xo'jaliklariga texnik yordam ko'rsatgan edi.1931-yilga kelib MTS lar soni 48 taga yetdi.urushgacha bo'lgan davrda respublikada darg'om, Narpay, Savay, Dalvarzin,Log'on, Katta Farg'ona kanallari kabi ko'plab suv inshootlari qurildi.1939-yilda O'zbekiston KP(b) Markaziy Qo'mitasi va respublika hukumati hashar yo'li bilan Katta Farg'ona kanalini qurush to'g'risida qaror qabul qildi.O'sha yilning 1-avgustidan 160 ming kolxozchi kanal qurulishini boshlab yubordi.Ularning 70 mingdan ziyodrog'ini yoshlar tashkil etardi.Uzunligi 270 kilometr bo'lgan bu kanal asosan qo'l mehnati bilan 45 kun ichida qurildi.Unda 46 ta yirik ,274 ta kichik gidrotexnik inshootlar , 5 ta temiryo'l va 40 ta avtomobil yo'llari ko'priklari barpo etildi.Holbuki, bunday kanalni barpo etish uchun Rossiya mustamlakachiligi davrida 8-6 yil, sovet davrida esa 6-8 oy kerak bo'ladi,deyilgan edi.Amalda esa u xalq qudrati,azm-u qarori bilan atigi 1,5 oyda bunyod etildi.Bu o'zbek xalqiga xos bo'lgan hashar ustaligi shonli, fidokor mehnatining samaralari edi.

O'zbekistonda sanoatlashtirish ishini amalga oshirish orqali sovetlar ko'p narsaga umid bog'lagandilar.Eng asosiysi, bu o'lkada ko'plab sanoat korxonalari va tarmoqlarini yaratish yo'li bilan uning bitmas –tuganmas boy tabiiy va mineral resurslarini ishga solish,arzon mahalliy ishchi kuchidan foydalanish va oxir-oqibatda Markaz uchun ko'proq foyda undurib olishni ko'zlaganlar.Ularning nazdida bu narsa O'zbekistonda satsiolizim qurish yo'lida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilishi kerak edi.So'ngra sanoatlashtirish jarayoni O'zbekistonning Markaz ta'sirida batamom qolib ketishi uchun qulay imkoniyatlar yaratar edi.

Xulosa qilib aytganda, Sovet hukumati O'zbekistonning sanoatlashtirish davrida O'zbekistonning ko'plab tabiiy boyliklarini va resurslaini shiddat bilan o'zlashtirdi va Markazga tashib ketdi.Shu bilan birga O'zbekiston sanoatini ma'lum darajada rivojlanishiga hissa qo'shdi.

#### **ADABIYOTLAR:**

I.R.Y.Rajabova,P.H.Karimov,K.O.Oqilov,A.Yu.Ibragimova  
I.A.Alimov,F.B.Isoqov "O'zbekiston Tarixi" kitobi .Nashri: Toshkent "O'qituvchi"  
1994.

2.Q.Usmonov, M.Sodiqov “O'zbekiston tarixi” kitobi. Nashri: “SHarq”Nashriyot –matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati TOSHKENT-2009.